

MAMLAKAT YOSHLARINI DESEKULARIZATSIYANING SALBIY JIHATLARIDAN HIMOYALASH MODELI

Otamatov Muzaffar Abdurashidovich

O'zMU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda mamlakat yoshlarini desekulyar jarayonlarning salbiy jihatlaridan himoya qilishga qaratilgan kompleks model ishlab chiqilgan. Model yoshlar o'rtasida diniy bilimsizlik, ekstremizm va yot g'oyalarga qarshi immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda ta'lim, axborot, psixologik qo'llab-quvvatlash, ota-ona nazorati, diniy hamkorlik va qonuniy himoya kabi muhim komponentlar asosida 10 bosqichli tizim taklif etilgan. Ushbu yondashuv yoshlarda sog'lom dunyoqarash, vatanparvarlik va ma'naviy barqarorlikni shakllantirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: desekulyarizatsiya, yoshlar, diniy omil, ekstremizm, ma'naviyat, tarbiya, ta'lim, ijtimoiy himoya, axborot makoni, model

Аннотация: В данном тезисе разработана комплексная модель защиты молодежи от негативных аспектов десекуляризации процессов. Модель направлена на формирование у молодежи устойчивости к религиозной неграмотности, экстремизму и деструктивным идеям. В исследовании предложена система, включающая 10 компонентов: образование, информационную работу, психологическую поддержку, родительский контроль, религиозное сотрудничество и правовую защиту. Данный подход способствует формированию у молодежи здорового мировоззрения, патриотизма и духовной устойчивости.

Ключевые слова: десекуляризация, молодежь, религиозный фактор, экстремизм, духовность, воспитание, образование, социальная защита, информационная среда, модель

Annotation: This thesis develops a comprehensive model aimed at protecting youth from the negative aspects of desecularization processes. The model focuses on strengthening resistance among young people to religious illiteracy, extremism, and destructive ideologies. The study proposes a 10-component system including education, information dissemination, psychological support, parental control, religious cooperation, and legal protection. This approach contributes to fostering a healthy worldview, patriotism, and spiritual stability among youth.

Keywords: desecularization, youth, religious factor, extremism, spirituality, education, upbringing, social protection, information environment, model

Modellashtirish, muammoni bartaraf qilish uchun eng maqbul yo'llardan biri bo'lib, tizimli tahlilning asosiy instrumentlaridan hisoblanadi.¹⁰ Ushbu paradigmani ilgari surgan holda dissertatsiya doirasida olgan bilimlarimiz, o'rganilgan ilmiy tadqiqotlar hamda qilingan tahlillar natijasida bugungi kunda mamlakatimizda ichki va tashqi ta'sirlar omilida paydo bo'layotgan desekulyar jarayonlarning salbiy jihatlariga qarshi turuvchi va ularni oldini olishga qaratilgan quyidagi modelni ishlab chiqishga harakat qildik.

Modelning **BOSH MAQSADi - Desekulyar jarayonlarning salbiy jihatlarini o'rganuvchi, qarshi turuvchi va ularni oldini oluvchi model ishlab chiqish** hisoblanadi.

¹⁰ SAMAROV R.S., OTAMATOV M.A. Harbiy faoliyatda tizimli tahlil, Darslik, O'R QK Akademiyasi nashri, 2020. -. 103 b.

Shuningdek, bugungi kunda islom dini asosan, namoz o'qish, ro'za tutish, arablaracha kiyinish yoki Umra va Haj ziyoratlaridan iborat deb qaralayotgan yoshlarga asl islom dinida avvalambor insoniylik, vatanparvarlik, odob-ahloq, ilm va tafakkur kabi bir qator ijobiy jihatlarni muhim hisoblanishini tizimli ravishda o'rgatib borishdir.

Masalaga tizimli yondashgan holda ushbu maqsadga erishish yo'lida, shakllangan gipotezalarimizni ilmiy asoslash orqali yuzaga kelgan masalalarni to'g'ri o'rganish, ularni salbiylik darajasini aniqlash va kamaytirish va ularga qarshi tura oluvchi mexanizmlarni ishlab chiqish kabi vazifalarini o'z ichiga oluvchi o'ziga xos bo'lgan ushbu modelni ishlab chiqdik.

Model o'z ichiga quyidagi komponentlarni oladi¹¹:

- *subyekt*: shaxs, jamiyat va davlat. Takidlash joizki, shaxs, jamiyat va davlat obyektga ta'sir qilish nuqti nazaridan subyekt bo'lsa-da, ko'rayotgan zarardan kelib chiqib obyekt ham hisoblanadi;


- *subyekt tomonidan yechiladigan masala*: yuqoridagi paragraflarda batafsil ko'rsatilgan, ya'ni bugungi kunda bir qator tahliliy ma'lumotlar, ekspertlar xulosalari va bizning kuzatishlarimiz asnosida shakllangan, nafaqat mamlakatimizda, balki mintaqa va dunyoda o'sib borayotgan desekulyar jarayonlar natijasida paydo bo'layotgan muammolarni obyektga nisbatan oldini olish, bartaraf qilish va unga qarshi turish mexanizmlarini yaratish hisoblanadi;


- *asl obyekt*: mamlakat aholisining asosiy (soni va muhimligi nuqtayi nazaridan kelib chiqib) qismi bo'lgan yoshlar (30 dan 14 gacha va undan kichiklar ham) hisoblanadi;

- *izoh*: modelda ilgari surilgan asosiy g'oya shuki, bugungi kunda turli salbiy ta'sirlar, xususan diniy bilimlarni o'rganaman deb adashib qolayotgan yoki asl islom diniga mos bo'lmagan odatlarni o'ziga kasb qilib olayotgan yoshlarga to'g'ri ma'lumot va bilimlarni berish hisoblanadi.

Ya'ni, bu to'g'ri bilimlar nimalardan iborat: bolalarga bog'cha va maktab yoshidan boshlab aynan islom dinida avvalambor muqaddas hisoblangan Vatanparvarlik, rostgo'ylik, odob-ahloq qoidalari, ilm-fan, kiyinish odobi va yaxshi hulq, ota-ona va farzand munosabatlari kabi bir qator ijobiy jihatlarni negizidagina qilingan diniy ibodatlar sofi hisoblanishini tizimli ravishda o'rgatib borishdir.

¹¹ Рыков А.С. Модели системного анализа: прикладные решения и оптимизация: – М.: МИСИ, 2005. – С. 45.





1. MUAMMONI O'RGANISH

Maqsad¹²: qaysi muammo ustida ishlash zaruratini aniqlash, uning ko'lamini, turi, unga ta'sir qiluvchi va keltirib chiquvchi omillarni aniqlash. Shuningdek, biz tasavvur qilayotgan yoki kuzatayotgan muammoni shaxsga, jamiyatga va davlatga keltirayotgan/tug'dirayotgan risk, xavf/xatar yoki tahdidini aniq va to'g'ri faktlar bilan isbotlash. Umuman olganda, desekulyar jarayonlarni keltirib chiqarayotgan salbiy jihatlarini tizimli tahlil qilish va xulosadan kelib chiqib unga mos bo'lgan qarshi mexanizmni tanlash.

Kim tomonidan amalga oshiriladi: Odatda har qanday muammo soha vakillari va unga aloqador bo'lgan kategoriyalar tomonidan o'rganiladi. Xususan, huquqiy jihatdan vakolatli organ sifatida, asosan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Diniy ishlar qo'mitasi, shuningdek 2024-yil 12-yanvar kuni o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida Qurolli Kuchlarning barcha kuch tuzilmalariga ham mamlakatimizdagi uyushmagan yoshlar bilan ishlash va unda diniy radikalizm, aqidaparastlik, islom dinini o'rganish jarayonida adashib qolayotgan yoshlarni o'rganish vazifasi qo'yildi¹³.

Bularadan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida mamlakatimizning ma'naviyat va madaniyat faollari, adabiyot va san'at namoyandalari, shuningdek Oliy Majlis palatalari, Vazirlar Mahkamasi, vazirlar va

¹² Samarov R. Tizimli tahlil: nazariya va amaliyot masalalari (pedagogik faoliyat misolida) / - Toshkent: "Adabiyot uchqunlari", 2007.

¹³ prezident.uz/uz. O'zbekiston prezidenti Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishini o'tkazdi. 12.01.2024.

hokimlarga yoshlar va ularga tegishli bo'lgan barcha muammolarni o'rganib borish va ularga qarshi turish uchun tizimli ishlarni bajarish bo'yicha qator vazifalar qo'yildi¹⁴.

Shu bilan birgalikda, yoshlarni adashib yomon yo'larga kirib ketishini oldini olish nuqtayi nazaridan kelib chiqib jamiyatdagi yuzaga kelayotgan dinga bog'liq bo'lgan holatlarni kuzatib borish har bir inson (o'zini-o'zi va boshqalarni), ota-ona, aka-uka, opa-singil, do'st-birodar, mahalla, ustoz-murabbiylarning vazifasi ham sanaladi.

Yuqoridagilardan tashqari, muammoni ilmiy jihatdan o'rganish turli tahlil markazlari, mustaqil ekspertlar, tadqiqot olib borayotgan izlanuvchilar, tinglovchi va studentlar tomonidan amalga oshirib borilishi mumkin.

Qachon va qanday (qaysi shaklda) amalga oshiriladi: Muammo **doimiy** ravishda o'rganib borilishini taqozo etadi. Chunki, dinga bog'liq savollar bilan mashg'ul bo'lgan bolaning aynan adashish chegarasini chizish nisbiydir (hammada har-xil va qiyin). Bola o'zidagi immunitet darajasi tufayli yot g'oyalarga qarshi tura olishi va unga qarshi kurashishi ham mumkin. O'z o'rnida asl diniy bilimlari va tafakkuri yetarli darajada shakllanmaganligi tufayli osongina jabrlanuvchiga aylanishi ham mumkin. Bunday bolaning o'ziga xosligi shundaki, u aksariyat hollarda o'zini aybdor hisoblamaydi va qilayotgan ishlarini to'g'ri deb o'ylaydi, bilib ulgurgan holda ham ko'pincha yashiradi.

Bunday jarayonni aniqlashda **subhat**lashayotgan insonning ruhiy holati (*dinning nimasi yoqyapti yoki yoqmayapti, nimadan xursand yoki xafa, o'z muammolarini hal etishda dinga qanchalik va qay tartibda suyanmoqda, o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishda diniy va dunyoviy bilimlarni barobar ravishda ko'ra olmoqdami*)ga, uning dunyoqarashining kengligi, fikrlash/tafakkur qila olish darajasiga e'tibor qaratish lozim.

Ushbu muammolarni aniqlash uchun odamlarga (ayniqsa yoshlarga), atrof-muhitga, mamlakatimiz siyosatiga hamda mintaq va dunyoda bo'layotgan dinga oid bo'lgan nomaqul ishlarga **e'tiborli bo'lish, kuzatish, tafakkur qilish, tahlil qilish, xabar berish** kabi shakl va usullar yordamida amalga oshiriladi.

Natija: o'rganilayotgan muammoning ta'sir dajasini kamaytirish va unga qarshi tura olish uchun chora ko'rish bo'yicha aniq tasavvur va modelning/mexanizmning **yaratilishi** zarur. Aks holda muammoni nafaqat saqlanib qolinishi, balki kelajakda, uni yanada avj olishiga ham imkon yaratganlar qatorida bo'lamiz.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, **MUAMMONI O'RGANISH** boshqa bosqichlar uchun lokomotiv bo'lib, desekulyar jarayonlarning salbiy jihatlarini o'rganuvchi, qarshi turuvchi va ularni oldini olishda **eng samarali yo'lni tanlashimizni ta'minlaydi**.

Muammo: muammoni o'rganish uchun to'sqinlik qiluvchi masala mavjud emas.

2. TA'LIM VA AXBOROT

Maqsad: Diniy e'tiqodda asosan, vatanparvarlik, inson, jamiyat va davlat ravnaqi, ilm o'rganish, insoniylik va milliy qadriyatlarimizga mos bo'lgan amallarni ustuvor ekanligini o'rgatish, shuningdek asl islom diniga xos bo'lmagan odatlarni oldini olish va to'xtatish. Eng qulay bo'lgan axborot makonini yaratish va adashmaslik uchun yetarli bo'lgan diniy va dunyoviy bilimlarni berish (ilovada keltirilgan **DASTUR** asosida)

Kim tomonidan va qayerda amalga oshiriladi: ota-ona (oila), mahalla, bog'cha va maktab, o'rta-maxsus va OTM, shuningdek Xavfsizlik kengashidagi vazifalardan kelib chiqib Qurolli Kuchlar kuch tuzilmalari.

¹⁴ prezident.uz/uz. Prezident: Ma'naviyat boshqa sohalaridan odinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak.22.12.2023

Qachon va qanday (qaysi shaklda) amalga oshiriladi: doimiy ravishda (dars jadvali asosida) mashg'ulot, seminar-trening, suhbat va ekskursiya kabi tadbirlar guruhli yoki yakka tartibdagi shakllarda o'tkaziladi. Maqsaddan kelib chiqib tuzilgan dasturga asosan o'quv materiallarini ko'proq qur'on (qur'on tavsiri), hadislar, qonunlar va boshqa adabiyotlardan olib tuzish lozim.

Natija: asl islom dini, qur'on va hadislarida avvalambor ilmi bo'lish, vatanparvarlik, inson, jamiyat va davlatga manfaat keltiruvchi amallar, poklik, rostgo'ylik, insoniylik kabi fazilatlarni afzal hisoblovchi va amalda bajaruvchi yoshlarni yetishtirish.

Muammo: oilalar, mahalla, bog'cha va maktablar, o'rta-maxsus va OTMda aynan ushbu dasturning yo'qligi va ota-onalar, bog'cha va maktablar tarbiyachi va o'qituvchilarini ushbu savollar bo'yicha o'z bilimlarining yetishmasligi.

3. DIALOG (SUHBAT/MUNOSABAT)NI RIVOJLANTIRISH

Maqsad: bugungi axborot asri (urushi) va uning asosiy obyekti inson (yoshlar) qalbi hisoblanganligi tufayli yoshlar qalbi (ongi)da o'zgarishlar, ikkilanishlar, qo'rqish kabi salbiy jarayonlarning boshlanishini zudlik bilan aniqlash.

Kim tomonidan amalga oshiriladi: ota-ona (oila), do'stlar, mahalla, bog'cha va maktab, o'rta-maxsus va OTM, shuningdek Xavfsizlik kengashidagi vazifalardan kelib chiqib Qurolli Kuchlar kuch tuzilmalari va boshqa vazirliklar.

Qachon va qanday (qaysi shaklda) amalga oshiriladi: suhbatlar doimiy ravishda o'tkazilishi nazarda tutiladi. Shuningdek, dunyoqarashi keng bo'lgan, diniy va dunyoviy bilimlari yetarli bo'lgan shaxslar ishtirokida ochiq muloqot (istalgan paytda savol-javob imkoni mavjud bo'lgan) platformasini yaratish, auditoriya muammosiga qarab mashg'ulotlar va turli tadbirlar o'tkazish lozim hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, bu kabi tadbirlarni o'tkazishda turli xil fikr va madaniyatlarni hurmat qilinishini targ'ib qilish hamda bu yo'lda katta natijaga erishgan shaxslarni taqdirlash/mukofotlash ko'rinishida diniy bag'rikenglik tuyg'ularini singdirish g'oyasi ham yotadi.

Aynan din bo'yicha destruktiv g'oyalarga qarshi va milliy qadriyatlarimizni targ'ib qilishga mo'ljallangan axborot kompaniyalari va reklamalar faoliyatini yo'lga qo'yish.

Natija: yoshlarni diniy bilimlarni o'rganishlarida avvalambor/asosan ko'rsatilgan kategoriya vakillariga nisbatan to'liq ishonch tuyg'usini yaratish.

Muammo: diniy bilimlarni olishda davlat idoralari vakillari o'rnining pastligi.

4. PSIXOLOGIK QO'LLASH/HIMOYA

Maqsad: yoshlarni ruhiy holati/hayotida mavjud bo'lgan muammolarni hal etishda dinga bo'lgan ishonch darajasi (yuqori-o'rta-past)ni aniqlash. Ushbu usul ko'pincha dinga moyilligi yuqorilashib ketayotgan toifalar bilan o'tkaziladi. Shuningdek, diniy e'tiqodi tufayli bosim va konfliktlarga uchragan shaxslarga psixologik yordam ko'rsatish.

Kim tomonidan amalga oshiriladi: Diniy va dunyoviy bilimlari/qarashlari yaxshi/yuqori shakllangan shaxslar tomonidan.

Qachon va qanday (qaysi shaklda) amalga oshiriladi: profilaktika sifatida belgilangan dasturga asosan mashg'ulotlar ko'rinishida, qarshi kurash sifatida esa diniy moyilligi ortib ketayotganligi sezilgan zahoti obyektni qilgan hatti-harakatlari yoki qarashlarining o'ziga xosligidan kelib chiqib aynan muammoga tegishli mavzu bo'yicha yakka tartibdagi suhbatlarni o'tkazish orqali rejali ravishda amalga oshiriladi. Shuningdek, bugungi g'oyaviy hurujlarga qarshi qaratilgan, maqsadli YAGONA, MAMLAKAT YoSHLARI MAFKURASIning ishlab chiqish va keng targ'ib qilish.



Natija: yoshlarning diniy va dunyoviy qarashlari/hatti harakatlari o'rtasidagi muvozanatni tenglashtirish, shuningdek davlat va jamiyatning ijtimoiy hayotiga/siyosatiga mosligini ta'minlash.

Muammo: psixologik himoyaga muhtoj bo'lgan toifani to'g'ri aniqlash, ulardagi muammoni to'g'ri tahlil qilish hamda ular bilan ushbu usulni amalda bajara oladigan darajada bilim va tajribaga ega bo'lgan shaxslarning yetishmasligi.

5. IJOBIY RAMZLARNI YARATISH

Maqsad (jamiyatdagi qaysi muammoga nisbatan qaratilgan): Yoshlar o'xshashni orzu qiladigan kishilar/qaxramonlar/ideallarni yaratish va bu mexanizm orqali ularga motivatsiya berib o'z qahramonlarini tanlashga ko'maklashish.

Kim tomonidan amalga oshiriladi: OAV, vakolatli davlat organlari.

Qachon va qanday (qaysi shaklda) amalga oshiriladi: doimiy ravishda bunday qahramonlar ishlab chiqiladi/yaratiladi va OAV, ijtimoiy tarmoqlar orqali reklamalar va qisqa roliklar ko'rinishida targ'ib qilib boriladi. Asosan, sekulyar muhitda katta yutuqlarga erishgan, davlat va xalq o'rtasida yuksak obro'ga ega bo'lgan shaxslar timsolini/modelini ilgari surish, shuningdek barcha din vakillarini bir axillikda birlashtirgan tarixiy shaxslar va mutafakkirlar yutuqlarini keng targ'ib qilish lozim bo'ladi.

Natija: Har-bir yoshni o'zi orzu qiladigan ijobiy obrazini tanlashi.

Muammo: OAV va ijtimoiy tarmoqlarda bunday ma'lumotlar uchun yetarli darajadagi vaqtning ajratilmasligi.

6. EKSTREMIZMDAN HIMOYA

Maqsad: Yoshlarni separatistik, ekstremistik, terroristik hamda diniy aqidaparastlik g'oyalariga berilib ketishini to'xtatish va oldini olish, shuningdek, ularni asl islom diniga xos bo'lmagan odatlardan himoyalash.

Kim tomonidan amalga oshiriladi: ota-ona (oila), bog'cha va maktab, o'rta-maxsus va OTM, shuningdek Xavfsizlik kengashidagi vazifalardan kelib chiqib Qurolli Kuchlar kuch tuzilmalari.

Qachon va qanday (qaysi shaklda) amalga oshiriladi: o'quv mashg'ulotlarida separatistik, ekstremistik, terroristik hamda diniy aqidaparastlik g'oyalariga berilish oqibati yomonligi haqidagi ta'sir kuchi katta bo'lgan, vakolatli tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilgan videoroliklar namoyish qilish. Avvalambor, majburiy ravishda telegram kanali orqali ota-onalar guruhini tuzish va bu orqali o'quvchilarning ota-onalariga ham shu turdagi videoroliklarni muntazam ravishda yuborish (ota-ona va o'quvchining uzviy bog'liqligini yaratish).

Qur'on oyatlari va hadislariga asoslangan holda ushbu salbiy jihatlarni islom diniga mos kelmasligini tushuntirish hamda maktab va OTMda ekstremistik targ'ibotlarga qarshi qaratilgan, rejali ravishdagi sahna ko'rinishlarini o'tkazish.

Natija: separatistik, ekstremistik, terroristik hamda diniy aqidaparastlik g'oyalariga berilib ketayotgan, shuningdek, asl islom diniga xos bo'lmagan odatlarni o'ziga kasb qilib olayotgan yoshlar sonining o'sish sur'atini to'xtatish va keskin pasaytirish.

Muammo: mashg'ulotlarni lozim darajada o'tkaza oladigan tajribali kadrlarning yetishmasligi.

7. OTA-ONA NAZORATINI TIKLASH

Maqsad: Farzand tarbiyasi va bilimida ota-ona kuchi/vakolatidan to'g'ri foydalanish.

Kim tomonidan amalga oshiriladi: maktab (Tyutor lavozimini ta'xis etish orqali), o'rta-maxsus va OTM sinf (guruh) tyutorlari, shuningdek Xavfsizlik kengashidagi.

vazifalardan kelib chiqib Qurolli Kuchlar kuch tuzilmalarida o'quvchilarga birlashtirilgan shaxslar orqali.

Qachon va qanday (qaysi shaklda) amalga oshiriladi: o'qitiladigan fanlardan kunlik natijalarni sarhisob qilib, o'zlashtirishi 2 yoki 3 bo'lgan bolalarning ota-onalariga o'g'il yoki qizi haqidagi aniq ma'lumotlarni "**har kuni qo'ng'iroq qilish**" usuli orqali yetkazish hamda ular bilan vaziyatni yaxshilash bo'yicha qisqa suhbat o'tkazish.

Takidlash joizki, ota-ona bilan bo'ladigan kunlik suhbatlarni fanlar bo'yicha mashg'ulot o'tuvchi o'qituvchilarga yuklab qo'yish **mumkin emas.**

Natija: yoshlarning bilim va tarbiyasini yaxshilash va pasayib borayotgan ota-ona nazoratini kuchaytirish. Shuningdek, bolalarni bugungi kunda virtual dunyoga mukkasidan kirib ketish xavfi orqali kelayotgan zararlarni darajasi pasayadi.

Ehtimoliy muammo: ayrim ota-onalar qatlamining ushbu mexanizmni noto'g'ri tushinishi va birdaniga qabul qila olmasligi.

8. DINIY BIRLASHMALAR BILAN HAMKORLIK

Maqsad: diniy va dunyoviy bilimlarni berishda din sohasida tegishli bilim (diplomga) va tajribaga ega bo'lgan mutaxassislar bilan muntazam hamkorlik tizimini o'rnatish.

Kim tomonidan amalga oshiriladi: ota-ona, bog'cha, maktab va OTM rahbarlari va QK kuch tuzilmalari vakillari.

Qachon va qanday (qaysi shaklda) amalga oshiriladi: tegishli dasturlar mavzulariga asosan ma'ruzalar matni va o'quv qo'lanmalar ishlab chiqiladi. Ushbu rejalariga ko'ra turli uchrashuvlar, tajriba almashish, o'quv-uslubiy (ma'ruza, seminar va b.) kabi tadbirlar ikki kategoriya (o'qituvchi/rahbarlar va o'quvchi/bolalar) uchun alohida amalga oshiriladi.

Natija: dunyoviy rivojlanishni/yuksalishni diniy bilimlar orqali yetkazib berish, ya'ni yoshlarda asl islom diniga xos bo'lgan va bo'lmagan bilimlar (e'tiqod, qoida, urf-odat)ning farqiga borish qobiliyatlarini shakllantirish.

Muammo: kattalar va yoshlar o'rtasida tushunmovchilikni paydo bo'lishi

9. SAMARADORLIKNI BAHOLASH

Maqsad: "Yoshlarni desekulyar jarayonlarning salbiy jihatlaridan himoya qilish 10-lik modeli"ni foydali ish koeffitsiyentini tahlil qilib borish.

Kim tomonidan amalga oshiriladi: ota-ona, bog'cha, maktab, OTM rahbariyati va QK kuch tuzilmalari vakillari tomonidan.

Qachon va qanday (qaysi shaklda) amalga oshiriladi: yoshlarni yurish turishi, o'zini tutishi va gaplari, fikrlashi va o'z oldiga qo'ygan maqsadlari, shuningdek kiyinishi kabi **shaxsiy sifatlarini** doimiy ravishdagi suhbat va kuzatuv shakllari orqali bilib borish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Natija: Yoshlarni desekulyar jarayonlarning salbiy jihatlaridan himoya qilishga yetarli kuchga ega bo'lgan modelni (nazorat tizimini) ta'minlash (ushlab turish).

Muammo: ijro subyektlari tomonidan o'z vazifalarini (suhbat va kuzatuvlarga) vijdonan bajarishda befarqlikka berilish ehtimoli mavjudligi.

10. QONUNIY QO'LLAB QUVVATLASH / HIMOYA

Maqsad: Yoshlarni desekulyar jarayonlarning salbiy jihatlaridan himoya qilishga mo'ljallangan ushbu nazorat tizimini mamlakat miqyosida tizimli ravishda qonuniy amalga oshirilishini ta'minlash.

Kim tomonidan amalga oshiriladi: ota-ona, bog'cha, maktab, OTM rahbariyati va QK kuch tuzilmalari vakillari tomonidan taklif beriladi va Qonun chiqaruvchi organ tomonidan qonun loyihasi ishlab chiqiladi.



Natija: “Yoshlarni desekulyar jarayonlarning salbiy jihatlaridan himoya qilish 10-lik modeli”ni kuchga kiritish.

Muammo: Tashkiliy ishlarda turli to‘siqlarning mavjudligi oqibatida ilgari surilayotgan modelning qolib ketishi yoki kech ishga tushishi.

Muxtasar qilib aytganda, bugungi kunda yoshlar o‘rtasida kuzatilayotgan salbiy jihatlar, xususan diniy bilimsizlik oqibatida mamlakat ijtimoiy xavfsizligiga bo‘layotgan xavf-xatar va tahdidlarni tizimli ravishda tahlil qilish, shuningdek bunga qarshi kurashda mamlakat aholisining asosiy qatlami bo‘lgan yoshlarni bog‘cha, maktab va OTMda o‘qiyotgan chog‘idayoq lozim darajadagi bilimlarni berish, masalan asl islom dinida avvalambor insoniylik, vatanparvarlik, odob-ahloq, ilm va tafakkur kabi bir qator ijobiy jihatlarni muhim hisoblanishini tizimli ravishda o‘rgatib borishdir.

Modelda rejalashtirilgan tadbirlarni belgilashda bolaning o‘z hayotida dastlabki bilimlarni beradigan oila, bog‘cha, va unda tafakkurni shakllanish davri bo‘lgan maktab paytlari hisobga olindi. Shu bilan birgalikda, bolaning mustaqil hayotga qadam bosayotgan kollej, litsey va OTMlarida o‘qish davri ham inobatga olinib, diniy bilimlarni o‘rganishda nafaqat chuqur tafakkur, balki bugungi kundagi geosiyosiy omillar va globallashtirish jarayonlarining salbiy ta’sirlarini ham o‘rgatuvchi mavzular hisobga olindi.

Albatta model yagona yoki o‘zgarimaslik xususiyatidan yiroqda bo‘lib, makon va zamon, vaqt va unga ta’sir qiluvchi omillarning holatidan kelib chiqib, o‘zgarishi va yanada takomillashib borishi mumkin.

